

**ALISHER NAVOIY MEROSIDA MEHNAT TARBIYASINING TALQINI***Baratova Nasiba Turopovna**Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM**Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedراسi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy merosida mehnat tarbiyasining qay tariqa talqin etilganligi yoritilgan. Mehnat va tarbiya haqidagi fikrlaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mehnat, hayot, asarlar, Alisher Navoiy, «Nazmul-javohir» asari, «Mahbub-ul-qulub» asari, «Hayratul-abror» beshinchi maqolatidagi «Hotami toy» hikoyasi, qanoat, sabr, halimlik.

**Ключевые слова:** Работа, жизнь, произведения, Алишер Навои, произведение «Назмул-джавахир», произведение «Махбуб-уль-Кулуб», повесть «Хотами той» в пятой статье «Хайратуль-аброр», довольство, терпение, мягкость.

**Key words:** Work, life, works, Alisher Navoi, the work "Nazmul-javahir", the work "Mahbub-ul-Qulub", the story "Hotami toy" in the fifth article of "Hayratul-abror", contentment, patience, gentleness.

Mehnat- inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mehnat farovon hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat insonlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas. Mehnat inson hayotini bezaydi, sermazmun qiladi, boyitadi va shu jarayonda insonlar o'z sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Mehnat insonni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rgatish zarur.

Mehnat faqat hayotiy zaruriyat va moddiy farovonlik manbai bo'lib qolmay, yoshlarga yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi, loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik xislatlarini paydo qiladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha ma'naviy-ma'rifiy merosimiz ularning sermashaqqat mehnatining natijasidir.

Insoniyatning taraqqiyot davriga qarab chiqar ekanmiz, barcha davrlarda yosh avlodni mehnatsevar bo'lishga alohida e'tibor qaratilgan. Buni biz xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, Sharq mutafakkirlarining asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Mehnat tarbiyasi masalalari O'rta Osiyolik mutafakkir olimlarning bizga meros bo'lib qolgan ma'rifiy asarlarida o'z aksini topgan. Ma'rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasiga alohida e'tibor berib, turli asarlarda yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik va insoniylik kabi oliyanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini hikoyalar, rivoyatlar orqali ko'rsatib

berganlar. Ular yoshlarni kasb-hunar o'rganishga, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga munosib faoliyat bilan shug'ullanishiga da'vat etganlar.

**Allomaning tasavvuridagi komil inson o'z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muhabbatli bo'lmog'i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo'la olgan insongina o'z kuchi hamda aqlu zakovatiga ishonadi. O'z kuchi va aqlu zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o'ta murakkab muammolarni ham yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo'lishning inson ahamiyatini yoritir ekan, alloma ayni o'rinda ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan «Nazmul-javohir» asarida quyidagicha bayon etiladi:**

Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,  
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.  
Har kimsaki yo'q ilm axmaq de oni,  
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.

**Mazkur to'rtlikning mazmunida ilmli, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan.**

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi.

Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

**Mutafakkir «Mahbub-ul-qulub» asarini yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko'chako'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.**

**Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergan malhamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon aholidan ba’zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do‘stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir...**

Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rinadiki, har toifaning xislatlaridan ma‘lumotlari va har tabaqaning ahvolidin bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”.

**Asar uch qismdan iborat. Alisher Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe’l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe’llar, ularning o‘ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa yaxshi fe’l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.**

**Alloma mazkur asarda kishilarni munosib va nomunosib kishilar tarzida ikki toifaga ajratadi. Har bir insonning hayotda uchraydigan nomunosib kishilarni yaxshi xulqli insonlardan ajrata olish layoqatiga ega bo‘lishi muhim ekanligi, yomon xislatlarga ega kishilar bilan munosabatda bo‘lishdan saqlanish lozimligini uqtirib o‘tar ekan, bu borada “Mahbub ul-qulub” asari yordamidan foydalanish foydadan holi bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Mazkur holat Alisher Navoiyning shaxsiy hayotiy tajribalari asosida yoshlarni komil inson bo‘lib voyaga yetishishga undashishidan dalolat beradi. Mutafakkir yoshlarning asar mazmunida o‘z ifodasini topgan hayot saboqlaridan o‘zlari uchun tegishli xulosalarni chiqarib olishlariga umid bildiradi.**

XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayrat-ul abror”, “Farxod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlarida bayon etilgan. A. Navoiy haqida Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday fikr bildiradi: “Inson qalbining quvonchi qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdankam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongi shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz”.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunarni va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bo‘lishini orzu qiladi. Bola tarbiyasida bilim va tarbiyani birga

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2009. 47-48-betlar.

olib borish kerakligini, bolaga yaxshi ta'lim-tarbiya va odob o'rgatishni ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy mehnatni baxtli hayot manbai va ayni choqda jamiyatning boyligi ham, faqat mehnat tufayli inson kamol topishi mumkinligini aytib o'tadi. Inson hayotida mehnat muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy o'z asarlarida o'z qahramonlarini mehnatsevar, kasb-hunarli qilib tasvirlaydi.

Alisher Navoiy inson o'z hayotida halol mehnat qilish kerakligini, ya'ni mehnatsiz rohat bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Yosh avlodni mehnatsevar etib tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlaridan qanday foydalanish mumkin degan savol tug'iladi?

"Hayratul-abror" beshinchi maqolatidagi "Hotami toy" hikoyasi va "Farxod va Shirin" dostonidagi Farxodning fazilatlarini tasvirlab tushuntirishimiz mumkin. Bu dostonidagi Farxod obrazini shunday tasvirlaydi: Farxod mehnatsevar, odobli, kasb-hunarlarni egallagan, xalqparvar inson. U o'z mehnati bilan xalqqa yordam beradi, xalqni og'ir mehnatdan xalos etadi. U o'zining shunday fazilatlarini tufayli Shirinning muhabbatiga sazovar bo'ladi.

Alisher Navoiy inson hayotida mehnat muhim ahamiyat kasb etishini kasb etib, "yuk chekmaq ila kishiga zebolik erur" deydi:

Mehnat aro har kimki, tahammul yo'q anga,  
Tarvijg'a mutlaqo taxayyul anga.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: «Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichiklarning mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. O'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan hurmatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan muncha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan.

**Adabdan muhabbatga bezak va pardoz yetadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavozu' do'stlik ko'zgasini yarqirataadi, ikki tomondan yorug'lik yetkazadi.**

Tavozu'li va adablilarga ta'zim va hurmat yetadi va u urug'ni ekkan bu qimmatbaho hosilni to'plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa, muhabbatga xalal yetishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavozu' evaziga ta'zim paydo bo'ladi»

Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi. g'anoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy

fazilatlarning odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, «qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi. Xazinadir – naqdinasi sochilgani bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkizadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi qanoat qo'rg'ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'liklardir – u yerga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotkorlik urug'ining mevasi farovonlik»

Alisher Navoiy qanoatni to'ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat ekanligi ta'kidlab o'tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi hamda ularni insonning obro'-e'tiborini yuksak darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o'tadi. Ayni o'rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta'rif beradi: «Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o'rtoqdir – suhbatlari zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so'zli nasihatiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'liq yuz beradi».

Asarda saxiylik sifatiga esa insoniylikning haqiqiy mezoni deya ta'rif beriladi. Alisher Navoiyning talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko'rsatishga da'vat etadi. Himmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu fazilatlarga ta'rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: «Saxiylik (qo'li ochiqlik) kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqin daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam bironing mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik». «Muruvvat karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo'lsa izzat va hurmatga sazovor bo'ladi» kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi xislatga ta'rif beriladi. Alisher Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va hayoni esa egizak farzandlardir deya ta'kidlaydi.

## References

1. Yusupova, N. (2021). PECULIARITIES OF LEARNING ACTIVITIES OF STUDENTS WITH INTELLECTUAL DISABILITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 138-142.
2. Berdiyorova, G. (2022, September). " FINE ART" IS A CREATIVE PRODUCT FOR CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 124-127).
3. Mirakhmedova, L. A. (2021). THE ROLE AND ROLE OF LOGORITHMIC EXERCISES IN ELIMINATING SPEECH DEFICIENCIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 122-125.
4. Rustamovna, U. N., & Madaminovna, B. M. (2022). THE STUDY OF THE CONCEPT AS A UNIT OF COGNITIVE LINGUISTICS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 66-69.
5. Pulatova, M. (2019). The main finite difference method summation of L. Euler series. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 219-222).
6. Jabbarov, U. (2020). Individual Psychological Characteristics Of Students In Teaching Foreign Language Sciences. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 38-42.
7. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.
8. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 98-102.
9. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
10. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение (pp. 357-363).
11. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
12. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ, 51.
13. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 567-572.
14. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en

- clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.
15. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. *Ученый XXI века*, 9.
  16. Zairova, N. B. (2022). THE USE OF ARTICULATORY STATES OF SOUNDS IN THE ELIMINATION OF PHONETIC-PHONEMIC SPEECH DEFICITS OF STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS IN LOGOPEDIC TRAINING. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 23-27.
  17. Zairova, N. B. (2022). ORGANIZATION AND CONDUCT OF SPEECH THERAPY CLASSES WITH STUDENTS WITH SPEECH DISORDERS IN SECONDARY SCHOOLS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 75-80.
  18. Abdullayeva, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF COMPUTER PROGRAMS IN FORMING THE VOCABULARY OF CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCIES. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 87-92.
  19. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 59-64.
  20. Sabirova, Z. I. (2022). PREPARATION OF CHILDREN WITH SPEECH DISTURBANCE IN SCHOOL IN THE CONDITIONS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 59-64.
  21. Ilxamjanova, S. Z. (2021, May). MODELING THE DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN SCHOOLS FOR CHILDREN WITH SEVERE DISABILITIES. In *E-Conference Globe* (pp. 259-263).
  22. Sabirova, Z. (2021). Model of preparing children with delayed mental development to school in conditions of preschool educational institutions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 700-706.
  23. Shoakhmedova, S. K. (2022). CHARACTERISTICS OF THE SPEECH THERAPIST'S ACTIVITY IN THE GENERAL EDUCATION SCHOOL IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 17-22.
  24. Shoakhmedova, S. K. (2022). USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 4(11), 81-86.
  25. Gapurova, D. (2022). DIFFERENTIAL DIAGNOSIS OF CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISORDER. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 12-16.

26. Gapurova, D. (2022). CHILDREN WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISABILITIES (CHILDREN WITH SENSORY AND MENTAL DISABILITIES). *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 06-11.
27. Gapurova, D. (2021). Children with complexed developmental disorders. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 683-687.
28. Гапурова, Д. Т. (2020). АЛОҲИДА ЁРДАМГА МУҲТОЖ БОЛАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 8).
29. Gapurova, D. T. (2019). Vocabulary Disorders of Children with Motor Alalia. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
30. Alimova, K. K. (2022). DEVELOPMENT OF GRAPHOMOTOR SKILLS IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS CURRENT ISSUES. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 05-09.
31. Alieva, S. S. (2022). MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF VOICE DISORDERS IN DYSARTHRIA. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11).
32. Alieva, S. S. (2022). PECULIARITIES OF SPEECH OF CHILDREN WITH DYSARTHRIA. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 41-46.
33. Shaabdurakhimova, S. S. (2021). Voice formation mechanism and causes of voice impairment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2259-2265.
34. Khusniddinova, B. K. (2022). INTERACTION OF A SPEECH THERAPIST WITH OTHER PARTICIPANTS IN THE CORRECTIONAL PROCESS. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 01-05.
35. Khusniddinova, B. X. (2021). LOGOPEED'S CODE OF ETHICS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 97-100.
36. Khusniddinova, S. K. (2019). Didactic Games Role in Work on Sound Automation. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
37. Abutova, S. O. (2022). RULES FOR COMMUNICATING WITH PRESCHOOL CHILDREN WHO STUTTER. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(12), 48-55.
38. кизи Муқимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O‘SIMLIKLAR DONLARI VA POYALARINING ORGANIK TARKIBI. *Журнал химии товаров и народной медицины*, 1(2), 185-202.
39. Исаков, В. Ю., Исаков, М. Ю., & Муқимжонов, У. В. К. (2022). МИКРОБИОГЕННЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В СИСТЕМЕ «ПОРОДА-ПОЧВА-РАСТЕНИЕ» НА ЛУГОВО-ОАЗИСНЫХ ПОЧВАХ ЗАПАДНОЙ ФЕРГАНЫ. *Universum: химия и биология*, (9-1 (99)), 45-50.

40. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ў., & Очилов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.
41. Хамзахўжаев, А. А., Валиев, Н. В., & Очилов, Г. М. (2021). МЕЛАМИННИНГ САНОАТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР ТЎҒРИСИДА. *Журнал естественных наук*, 3(5).
42. Akhiyarov, A. A., Lobov, A. N., Ivanov, S. P., Spirikhin, L. V., Gabbasov, T. M., Tsyrlina, E. M., ... & Yunusov, M. S. (2020). Antiarrhythmic agents based on diterpenoid alkaloid lappaconitine. Protonation of N-deacetylappaconitine in methanol solutions. *Russian Chemical Bulletin*, 69(3), 567-571.
43. Ботиров, Р. А., Валиев, Н. В. Ў., Жураев, О. Т., Садиков, А. З., Сагдуллаев, Ш. Ш., & Турсунова, Ш. З. (2020). Технология производства алкалоида стахидрина из растения *Capparis spinosa* L. *Universum: технические науки*, (9-2 (78)), 55-59.
44. Omonjonovich, N. B., Kosimovna, K. S., Valijon o'g'li, V. N., & Shukhratovich, A. N. (2022). ON THE MODERN INTERPRETATION OF THE HISTORY OF CHEMISTRY. *Open Access Repository*, 8(12), 655-658.
45. Kosimovna, K. S., Omonjonovich, N. B., Shukhratovich, A. N., & Azamovna, K. M. (2022). CLASSIFICATION OF HEAVY METALS IN MEAT AND DAIRY PRODUCTS BASED ON THE DEFINITION. *Open Access Repository*, 8(11), 260-265.
46. Кушназарова, К. Ш. (2022). Совершенствование системы классификации мясомолочной продукции на основе товарной номенклатуры (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD). Ташкент).
47. Кушназарова, Ш. К., Азимов, Н. Ш., Валиев, Н. В. Ў., & Очилов, Г. М. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.
48. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., АСЛАНОВА, Ф. И., МЕЛИБОЕВА, Г. С., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСЛОВИЙ СИНТЕЗА ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2015* (pp. 25-26).
49. КАРИМОВА, Д. Б., КАЗИМОВА, Н. М., МАХМУДОВА, С. А., ДЕХҚОНОВА, К. Д., & МАХМУДОВ, И. Т. (2015). ДИСЛОКАЦИОННЫЕ ДЕФЕКТЫ В МОНОКРИСТАЛЛАХ ГЕКСААЛЮМИНАТА ЛАНТАНА МАГНИЯ. In *Молодежь и XXI век-2015* (pp. 15-18).
50. Муминова, Р. Н., & Казимова, Н. М. (2015). Проблема очистки сточных вод в Узбекистане. *Молодой ученый*, (22), 47-48.

51. ХАЛИМОВА, М. Р., ТАШПУЛАТОВА, Д. С., & КАЗИМОВА, Н. М. (2015). АНТРОПОГЕННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЧИСЛЕННОСТЬ РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА. In Молодежь и XXI век-2015 (pp. 363-365).
52. НОМОЗОВ, Ш. Ю. О., КАЗИМОВА, Н. М., & МАХМУДОВ, И. Т. (2014). ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ БИТУМА ИЗ ГОССИПОЛОВОЙ СМОЛЫ. In Будущее науки-2014 (pp. 105-107).
53. Туляганов, Т. С., Козимова, Н. М., & Султанов, С. А. (2008). Новые алкалоиды *Peganum Harmala* {Peganaceae. Растительные ресурсы, 44(1), 82-86.
54. Tulyaganov, T. S., Kozimova, N. M., & Allaberdiev, F. K. (2006). Alkaloids from plants of the genus *Nitraria*. Chemistry of natural compounds, 42(2), 198-200.
55. кизи Мукимджонова, У. В., Исаков, М. Ю., & Худжаева, Н. Т. (2022). VIGNA SINENSIS, PHASELOUS AYREUS, ARACHNIS HYPOGAEA O'SIMLIKLAR DONLARI VA ROYALARINING ORGANIK TARKIBI. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(2), 185-202.
56. Azimova, N. R., Hojaev, V. U., Hojayeva, N. T., & Oxunov, I. I. (2020). NICOTINE-CONTAINING PLANTS. Life Sciences and Agriculture, 2(2), 37-41.
57. Ravshanovna, A. N., Umarovich, X. J. V., Toshtemirovna, X. J. N., & Islomovich, O. I. (2020). Tarkibida nikotin saqlovchi o'simliklar. Life Sciences and Agriculture, (2-2), 37-41.
58. Рахимова, Г. С., Мирзахамдамова, Д. З., & Расулов, М. А. (2016). Экологические проблемы в области Фергане: исторический аспект. Высшая школа, (21-2), 73-75.
59. Рахимова, Г. (2020). ОЛМАЛИҚ ШАҲРИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТНИНГ ЎЗГАРИШ САБАБЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
60. Рахимова, Г. С. (2020). 1950-80 ЙИЛЛАРДА НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТЛАР. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 135-138).
61. Рахимова, Г. С. (2020). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ САНОАТ КОРХОНАЛАРДАГИ ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(11).
62. Rakhimova, G. S. (2022). KARAKALPAKISTAN, ENVIROMENTAL SITUATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 176-181.
63. Sobirjonovna, R. G. (2021). IMPACT OF PROBLEMS IN THE INDUSTRY OF KARAKALPAKISTAN ON THE ENVIROMENTAL SITUATION.
64. Рахимова, Г. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА 1940-1980 ЙИЛЛАРДА САНОАТЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(8).
65. Rahimova, M. O., & Muhammadqodirova, F. O. (2022). THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK NATIONAL LANGUAGE IN

- THE 20TH CENTURY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 132-135.
66. Rakhimova, M. O. (2022). About antonymy. Eurasian Research Bulletin, 14, 309-311.
67. Odilovna, R. M., & Otabekna, M. F. (2022). Presupposition of Adjectives. Eurasian Scientific Herald, 14, 17-19.
68. Rahimova, M. (2022). SEMIOTIC ISSUES OF WORD NOMEMA. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 333-336.
69. ODILOVNA, R. M. (2022). THE SOUND SIDE OF THE WORD AND ITS SIGNIFICANCE. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 61-64.
70. Odilovna, R. M. (2021). Meaning and its Place in the Symbolic Status of the Word. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 96-98.
71. Раҳимова, М. (2021). НОМЕМА ВА СЕМЕМАНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.23. 79.047 М. Раҳимова, Қўқон ДПИ, филология фанлари бўйича фалсафа доктори. In Научно-практическая конференция.
72. Rakhimova, M., & Muhammadkadirova, F. (2021). CORRELATIVE WORDS. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2).
73. Odilovna, R. M. (2018). The Role and Status of Linguistic Markers in the System of Symbols. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 29-34.
74. Раҳимова, М. О. (2017). ПРИОБРЕТЕНИЕ ЗНАКОВОСТИ СЛОВА В ВИРТУАЛЬНЫХ И АКТУАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ. Ученый XXI века, (1-2).